

II bo'lim.

Qiziqishlardan kasblargacha






Sizningcha, kasb nima?

Rasmda tasvirlangan kasb egalari nima bilan shug'ullanadilar?

“Dunyoda kasb-hunarlar ko‘p. Hayotda har bir kasbning o‘ziga yarasha o‘rni, ahamiyati bor”, degan fikrga o‘z munosabatingizni bildiring.





Kasblar gulshodasi

Kasb... Kasb nima? Inson ongida qachon paydo bo'ladi? Bu hamma odamlarga tegishlimi? Uning shakllanishiga nima yoki kim ta'sir qiladi?

Ha, bu savollarga javob topish unchalik oson emas.

Kasb – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi. U ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat va tajribani talab etadi.

Bizning tezkor va o'zgaruvchan dunyomizda juda ko'p kasblar mavjud. Tanlov juda xilma-xil va ajoyib. Mashhur faylasuf: "Barcha kasblarni odamlar yaratadi", deb aytgan edi.

Bilasizmi, dunyoda yo'qolib borayotgan, noyob va zamonaviy kasblar mavjud. O'ylab ko'raylik-chi, nega bunday? Bunday kasblarning ayrimlari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiramiz...

Yo'qolib borayotgan kasblar

Matn teruvchi (mashinistka). Mazkur kasb 1990-yillarda, yozuv mashinasi o'rnini kompyuter va printerlar egallagandan so'ng yo'qolib ketdi.

Telefonchi – avtomatik telefon stansiyalari yaratilguniga qadar abonentlarni telefonchi qizlar bog'lab bergan. Bu kasb nufuzli hisoblangan va unga ibratli oilalarning yoqimli ovozga, muloyim fe'l-atvorga ega qizlari qabul qilingan.

Zamonaviy kasblar

Bu kasblar bugungi kunda inson ehtiyojlari va texnika rivoji bilan bog'liqdir. Har bir sohaga kirib kelayotgan axborot texnologiyalari kasblarning ham o'zgarishiga, yangilanishiga sabab bo'lmoqda.

- robototexnika mutaxassisi;
- videomontaj ustasi yo'nalishlari;
- axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha dasturiy ta'minot.

